

Ubaydullayeva Nargiza Zokirovna

Samarqand viloyati Payariq tuman 78-umumiy òrta tàlim maktab

amaliyotchi psixologi

***Annotatsiya:** Bola tug'ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o'zlashtirib olishi mumkin. Bu o'z navbatida bola faoliyatida va atrof-muhitni bili shva o'zlashtirishda etakchi vazifani bajaradi.*

***Kalit so'zi:** Bolalar .tarbiya,jamiyat, G`arb va Sharq olimlari.*

Odam bolasining rivojlanishi – bu muhim jarayon hisoblanadi. Ma'lumki, hayot davomida inson jismoniy va ruhiy jihatdan o'zgarib boradi. Lekin bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi. Tarbiya, irsiyat (nasl) va muhit bolaning rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. Agar ana shu uchta omil bolaga ijobiy ta'sir qilsa, u kelajakda barkamol inson bo'lishi va salbiy tomondan ta'sir qilsa, badaxloq kimsaga aylanishi mumkin. Bolaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida Islom dini va ulamolarning asarlarida yetarlicha fikr va mulohazalar bildirilgan. Shu bilan birga bolaning rivojlanishi haqida G'arb faylasuflari ham o'zlarining qarashlarini bayon qilishgan. Quyida biz G'arb va Islom dunyosining bolaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqidagi fikrlarini keltirib o'tamiz.

Bolaning shakllanishi haqida G'arb faylasuflarining fikrlari. Biologik yo'nalish – bu yo'nalish tarafdorlari odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishida tabiiy – biologik (irsiy) omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi deb biladilar. Ularning fikricha, bola ona qornidalik vaqtda avlod-ajdodlardan o'tgan tug'ma xususiyatlariga rivojlanadi. Ular tarbiya va muhitning rolini cheklab qo'yishadi. Yo'nalishning tarafdorlari Aristotel, Platon hisoblanadi.

Preformizm yo'nalishi – XVI asr falsafasida vujudga kelgan bu oqim namoyandalarning fikricha, bo'lajak shaxsga tegishli barcha xususiyatlarga bola ona qornidaligidayoq ega bo'ladi. Ular tarbiya va muhitning rolini butunlay inkor etishdi.

Bixeviorizm yo'nalishi – bu oqimga amerikalik pedagog va psixolog E.Torandayk asos soldi.

Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, jumladan, ong va aqliy xususiyat ham nasldan naslga o'tadi. Bu bilan E.Torandayk tarbiyaning shaxs rivojlanishiga ta'sirini butunlay inkor etadi va uni shaxsning xususiyatlariga ta'sir etishdan o'z deb biladi. Insonning shakllanishida Islom dini va mutafakkirlarning fikrlari Islom dini va mutafakkirlarning asarlarida bolaning shakllanishi uchun tarbiya, irsiyat va muhit ta'siri alohida ta'kidlangan. Shu uch omilning ichida tarbiyaning roli, ayniqsa, ahamiyatli hisoblanadi. Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi. Chunki nasl va muhitda kamchilik bo'lsa, tarbiyaning ta'siri

sezilmasligi mumkin. Quyida biz uchta omil haqida Islom dini va ulamolarning qarashlarini keltiramiz.

Bolaning shakllanishida tarbiyaning ahamiyati Tarbiya – inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi va eng muhim omil hisoblanadi. “Tarbiya” arabcha so'z bo'lib, o'stirdi, rahbarlik qildi, isloh qildi degan ma'nolarni bildiradi.

Islom ulamolaridan Rog'ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta'rif qiladi: “Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o'tkaza borib, batamom nuqtasiga yetkazishdir. Tarbiyaning ma'nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg'unlik va muvozanat ila o'stirishdir”.

Tarbiyani insonga yetkazishda ota-onaning o'rni beqiyosligini Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) ta'kidlaydilar. Abu Hurayra(roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi: “Nabiy (sollallohu alayhi va sallam): “Har bir tug'ilgan bola faqat fitrat (sof tabiat) bilan tug'iladi. Bas, ota-onasi uni yahudiy yoki nasroniy yoki majusiy qiladi...”. Bu hadisi sharifdan irsiyat, ya'ni biologik omil insonni

shakllanishida asosiy o'rin tutadi degan fikrni ilgari suruvchi G'arb faylasuf va oqimlarining fikrlari asossiz ekanini va tarbiyaning muhimligini bilib olamiz. O'rta Osiyolik mutafakkirlardan Forobiy va Abu Ali ibn Sino inson tarbiyasiga ta'sir etadigan omillar ahamiyatiga e'tibor berganlar.

Forobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: Munosib inson bo'lish uchun insonda ikki xil imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir...” deydi. Abu Ali ibn Sino oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: “Bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ng uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak... Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo'ladi” degan fikrni ilgari suradi.

Bolaning shakllanishida irsiyat (nasl)ning ahamiyati Bola shaxsining rivojlanishida naslning ta'siri deganda ota-onadan bolaga meros bo'lib o'tadigan jismoniy xususiyatlari (tananing tuzilishi, sochining, ko'zining, terining rangi, bo'y-basti) shuningdek, tananing vertikal holdagi harakati, tafakkur va nutq rivojlanishi, mehnat qilish qobiliyati, tug'ma holatda o'tadigan qobiliyatlar va xususiyatlar tushuniladi. Islom dinida naslga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki nasl pokiza va ota-ona ma'rifatli, axloqli bo'lsa, bu xususiyatlar tug'ma holatda bolaga o'tadi va kelajakda komil insonga aylanadi. Agar ota-ona ma'rifatdan yiroq va axloqsiz bo'lsa, ulardan tug'iladigan farzand jamiyatga zarar keltirishi mumkin. Lekin ota-onadan tug'ma holatda o'tadigan qobiliyat va xususiyatlar o'z holicha rivojlana olmaydi, go'yo u “mudroq” holda bo'lib, uning uyg'onishi – rivojlanishi uchun qulay muhit va muttasil tarbiya kerak.

Bolaning shakllanishida muhitning ahamiyati

Bola kamolotiga ta'sir etadigan omillardan biri tashqi muhit hisoblanadi. Muhit deganda kishiga tabiiy ta'sir etadigan tashqi voqealar majmui tushuniladi. Bunga tabiiy muhit, oila muhiti va ijtimoiy muhit kiradi. Tabiiy (geografik) muhit – insonning hayot tarziga, xarakteri va mehnat faoliyatiga

ta'sir etadi.

Masalan, shimolda istiqomat qilayotgan inson, janubda yashayotgan insondan nafaqat jismoniy ko'rinishi, shu bilan birga ruhiyati, dunyoqarashi va xususiyatlari bilan ham ajralib turadi.

Oila muhiti – insonning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Chunki bola ko'z ochib ota-onasini, qarindosh-urug'ini ko'radi. Uning jismoniy va ruhiy rivojlanish davri oila ta'sirida shakllanadi. Agar oilada islomiy muhit mavjud bo'lsa, bolaning axloqi go'zal va fazilatli bo'lib ulg'ayadi. Ijtimoiy muhit – ishlab chiqarish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar insonga alohida ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy aloqa, ya'ni insonlararo o'zaro munosabatlar natijasida odam bolasi hayotga va mehnatga tayyorlanadi, kerakli tajriba va bilimlarni egallaydi.

Odam bolasining rivojlanishi ,uning yetuk , barkamol inson bo'lib yetishishi muhim jarayon hisoblanadi.Hozirgi kunda yetuk shaxsni shakllantirish uchun nimalar qilish kerak rivojlanishning qaysi turiga alohida e'tibor berish kerak va bolani qanday qilib barkamol shaxs qilib rivojlantirish kerak degan savollar hozirgi kunda dolzarb masala hisoblanadi.Bu davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.Zero rivojlanayotgan O'zbekistonimiz yoshlar qo'lidadir. Shunday ekan har bir ota -ona hali bola ona qornida paydo bo'lganidan uni tarbiyalay boshlashi kerak bo'ladi."Bir inson bolasini dunyoga keltirib, bir donishmand yoniga boradi va undan men bolamni barkamol, ham ma'nan ham jismonan barkamol shaxs qilib tarbiyalashim uchun qanday ishlar qilishim kerak deb savol beradi, donishmand unga bolangiz dunyoga keldimi deb so'raydi u kishi ha deb javob beradi, shunda donishmand siz bolani tarbiyalashga kechikibsiz uni ona qornidayoq tarbiyalab boshlashingiz kerak edi deb javob beradi"Bundan ko'rinib turibdiki bolani barkamol qilib shakllantirishimiz uchun bola rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar muhim hisoblanadi.Bu omillar ijtimoiy omil, irsiyat va oila tarbiyasidir.Bolalaring erkin rivojlanishi haqida konsitutsiyamizda ham belgilab qo'yilgan masalan bola dunyoga kelganidan unga "So'z erkinligi" beriladi. Bu esa har bir bola o'z so'z erkinligiga ega demakdir. So'z orqali har qanday vaziyatda ijtimoiy muhitga kiraolishi,

muammoli vaziyatlarni hech kimdan qo'rqmay to'laligicha hal eta olishi, turli jamoaviy yig'inlarda o'z nutqidan foydalanib gapirish huquqiga egadir. Insoniyat paydo bo'lganidan buyon rivojlanishning qaysi yo'nalishidan foydalanib bolalarni tarbiyalash ko'proq samara berishi haqida olimlar baxs munozaralar qilib kelmoqda

Jamiyatda ma'naviy muhit yaxshi, adolat ustuvor bo'lsa, inson faoliyatiga ijobiy ta'sir qilishi va aksincha bo'lsa, salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, insonning kamolotga yetishiga ta'lim-tarbiya, muhit va irsiyat muhim hisoblanadi. Nega bugungi kunda o'tmishda yashab o'tgan Imom Buxoriy, Forobiy, Beruniy va G'azzoliy kabi olimlarga o'xshagan insonlarni uchratmaymiz? Chunki ularning irsiyati toza, ota-onalari solih va soliha bo'lishgan, ular yashagan davrda ilm, ma'rifat va taraqqiyot o'zining cho'qqisiga chiqdi, ya'ni muhit yaxshi bo'lgan va eng asosiysi, ajdodlarimizning tarbiyasiga mas'ul bo'lgan ota-onalari va ustozlari o'z vazifalarini a'lo darajada bajarishgan, tarbiyalarida nuqson bo'lmagan. Agar farzandlarimizning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi bu omillardagi nuqsonlarni bartaraf etsak, albatta kelajak avloddan Imom Buxoriy,

G'azzoliyga o'xshagan zabardast olimlar yetishib chiqadi.

Bolaning shakllanishi haqida g'arb faylasuflarining fikrlari. Biologik yo'nalish tarafdorlari odam bolasining shaxs bo'lib rivojlanishida irsiy omillar hal qiluvchi omil deya ta'riflaydi. G'arb olimlarining fikricha bola dunyoga kelib faqat otaonadan o'tgan belgilar bilan rivojlanib boradi deb aytadi. Ular tarbiya va muhitning ro'lini tamomila cheklab shaxs rivojlanishida irsiyatni birinchi darajaga ko'taradi. G'arb olimlaridan yana biri bu V. Pterndir u "Yangi tug'ilgan bolani odam emas sut emizuvchi deya ta'riflaydi" Bola dunyoga kelgandan huddi hayvon kabi bo'ladi u irsiyati orqali ya'ni ota - onasidan o'tgan belgilar bilan rivojlanib boyib boradi va vaqatlar o'tib shaxs bo'lib kamolga yetishini aytadi. Byullar bola faqat qobiliyatlarni ota - onadanmas ahloqiy normalar ham irsiyat orqali o'tishini aytadi. Xalqimizda "onasini ko'rib, qizini ol" degan naql bor ya'ni ota - ona qanday xulq-atvorga ega bo'lsa bola ham shunday ko'rinishda bo'lar ekan. Irsiyatni biologik tomondan o'rganib chiqadigan bo'lsak irsiyatning yaxshi tomoni bilan birga yomon tomoni ham bor bunga misol qilib ota- ona orqali bolalarga faqatgina yaxshi

hususiyatlari o'rishi bilan birga yomon belgilari ham o'tishi mumkin masalan yomon hulq atvor, turli irsiy kasalliklar. Irsiy kasalliklar bolaga ota-ona tomonidan o'tganda ular umrining oxirigacha saqlanib qolib ketishi mumkin bu ham bolaning rivojlanishi uchun to'siqdir. Meditsina ham shuni aniqlaydi-ki irsiy kasalliklar davolanishi qiyin yoki ummuman davosiz umrbod saqlanib qoluvchi kasallik ekanligini aytib o'tgan. Ibn Sino Inson tashqi ko'rinishi uning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishini aytib o'tgan. Agar irsiy kasallik sezilib tursa bolada yanayam rivojlanishda ortda qolish kuzatiladi. Irsiyatning ijobiy tomonlari ham bor masalan ko'p oilalarda bolalar ota-ona kasbi davomchisi hisoblandi. Ota-ona egallagan kasbni egallaydi. Biron bir hunarmandchilikning turiga qiziqsa bola ham o'sha yo'ldan ketadi. Irsiyatga o'tmishda ham katta e'tibor bergan Amir Temur bobomiz kelin tanlayotganda kelinining yetti pushdini surishtirib kelin qilgani buning yaqqol namunasidir. Oila tarbiyasi- oilada otaona vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Oila tarbiyasi yosh avlodni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch oilada ruhiy ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasida birlikning saqlanishi kerak bo'ladi.

Shunday ekan bolalarni hali shakllanmasdan ijtimoiy muhitga kirmasligidan oilaviy sharoitda unga to'g'ri tarbiya berishimiz kerak bo'ladi. Bola kichkinaligida berilgan tarbiya ham huddi bilim kabi naqsh singari muhrlanib qoladi. "Tarbiya - inson kamolotiga ta'sir qiluvchi tashqi va eng muhim omil hisoblandi" Oilada qanday tarbiya ko'rgan bo'lsa bolalar bu tarbiyani ijtimoiy muhitda ham ko'rsatdi. Oila bu jamiyatning bir bo'g'ini hisoblanadi. Oilaviy muhit yaxshi bo'lgandagina jamiyat rivojlandi. Shuning uchun hozirgi kunda prezidentimiz oilaga oilaviy sharoitga alohida e'tibor bermoqda. Har bir ota-ona kelajakda ma'naviy sog'lom farzandi bo'lishini hohlasa, avvalo oilaviy sharoitini yazshilashi, sog'lom oilaviy sharoitni yaratishi kerak. Sog'lom farzand sog'lom sharoitda voyaga yetadi. Ota -ona bola qiziqishlariga alohida e'tibor qaratishi, uning hohishini bajarishi kerak. Bolaning maktabgacha yoshidagi bo'lgan qiziqishlari uning kelajagi uchun poydevordir. Bola bog'cha yoshida qiziqishlar uyg'onadi har bir ota -ona

qiziqishlarni to'g'ri baholab qishqishlarni rag'batlantirishi, bolani qishiqishi tomon yo'naltirishi kerak. Buyuk sportchilarning hayotiga nazar soladigan bo'lsak hozir shug'illanib kelayotgan sportlariga bog'cha yoshidan qiziqib ota -onasi to'g'ri yo'naltirgani sabab shunday yutuqlarga erishgan. Maktabgacha yosh davri bolalar hayotida iste'dodlar uyg'onadigan davrdir. Oilada sog'lom muhit deganda ota -ona o'rtasidagi iliq munosabatlardir "Qush inida ko'rganini qiladi "degan naql bor ota -ona bir biriga yaxshi munosabatda bo'lar ekan bola voyaga yetib ota -onasi yaratgan oilaga o'xshagan oila yaratadi. Oilada bola qiziqishlari va uning hohishlarini vaqtida qondira bilish kerak, ularga vada berib vadani vaqtida bajarsa bola ongida ijobiy g'oyalar paydo bo'ldi. Bola hohishlarini aytgan paytida qondirish salbiy oqibatlariga ham olib keladi. Afsuski bugungi kunda juda ko'p oilalarimiz g'arb mamlakatlaridan andoza olib oilasini tartibda, bolalarini g'arbona tarbiya bilan voyga yetkazmoqda. Oilada mehr muhannat ota-ona va farzand o'rtadidagi do'stona suhbat davralari yo'q bo'lib ketmoqda. Eng muhimi oilada axloqiy tarbiya paydo bo'ladi. Fitrat o'zing mazkur asarida farzand tarbiyasi aqliy tarbiyada aqliy tarbiya, badan tarbiya va axloqiy tarbiyaning o'rnining muhimligini takidlaydi. Mazkur uch tarbiyaning eng muhimi axloqiy tarbiya hisoblanadi. O'zingiz xohlaganingizcha bolaning aqliy va badan tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lishingiz mumkin va qo'lingizdan kelguncha uni dono va baquvvat qiling. Lekin axloqiy tarbiya talab darajasida bo'lmasa aqli va jismoniy kuchini o'zi yoki atrofdagilar zarariga ishlatadi. Ijtimoiy muhit shaxsning shakllanishiga va rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi Ayni vaqtda insonning ijtimoiy faolligi, faoliyati ta'sirida ijtimoiy muhit o'zgaradi bu o'zgarishlar jarayonida odamlarning o'zlari ham o'zgaradi. Ijtimoiy muhit bola shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblandi oilaviy sharoit ham aslida kichik ijtimoiy muhit hisoblandi lekin bunda bola to'lig'icha shakllanmaydi. Bola maktabga chiqilib haqiqiy ijtimoiy muhitga kiradi yon atrofdagilar bilan munosabati tubdan o'zgaradi va ijtimoiy muloqdotni o'rganadi. Oilasida ota - onasiga qilgan erkalliklarni yo'qotib shaxs bo'lib shakllana boshlaydi. Ijtimoiy muhitda muomala madaniyati ham shakllanadi kimga, qaysi paytda qanday munosabatda bo'lish jarayonlarini o'rganadi. Bola tug'ilganida hayvoniy hislatlar bilan tug'iladi, huddi

hayvon kabi bo'ladigan ijtimoiy muhit bolani rivojlantiradi shaxs sifatida shakllantiradi. Hayvoniy hislatlardan yiroqlashib shaxs bo'lib shakllanadi. Ijtimoiy muhit bola rivojlanishi uchun muhim bo'lganligi sababli juda ko'p olimlar ijtimoiy muhitning bola rivojlanishiga ta'sirini o'rganib chiqadi. Bixeviorizm asoschilari N. Miller va D. Dollard hisoblanadi. Ular bola hayotida ijtimoiy muhitning ro'lini yuksak baholab bolani shakllantiruvchi asosiy qisim deb biladi. Olimlar bola ijtimoiylashuvi uchun ota-onaning ro'lini yuksak baholab ularning alohida vazifalari borligini aytadi. Bola ijtimoiylashuvida ota-onalarning vazifasi bolani ovqatlantirish bolada agressivlikning namoyon bo'lishi, uning jinsiy identifikatsiyasi va me'yoriy xulq atvurlarning boshqa xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan yosh davriga oid muammolarni bartaraf qilish kabi vazifalar yuklatilgan bo'ladigan. Bola ijtimoiylashuvi murakkab jarayon bo'lganligi uchun ota-onaga ko'ragi kerak. Bola ijtimoiy muhitga kirganida uning tarbiyasi yutish-turishi odamlarga munosabati hattoki oilasiga munosabati ham o'zgaradi. Agressivlikni moyillashtirish sharoitlarini o'rganish ijtimoiylashuv nazariyasining tayanch mavzularidan biridir. Ijtimoiylashuv jarayoni favqulotda keng va ko'p qirrali jarayondir. Ijtimoiylashuv jarayoni onson bo'lishi uchun oilaviy sharoit ham juda muhimdir. Bola xulqi yaxshi bo'lsa ijtimoiylash ham onsonlashadi bolarning turli davralarga erkin kirib turli odamlar bilan munosabatga kirishishi onson bo'ladigan. Bunday jarayonda hulk albatta muhimdir. Bolaning ijtimoiy muhitga kishishida ota-onaga juda e'tiborli bo'lishi kerak. Bolaning yon atrofidagi o'rtoqlari unga yomon ta'sir ko'rsatsa bola hayoti ham salbiy tomonga o'zgaradi. Barkamol shaxsni shakllantirish, kelajagimiz poydevori bo'lgan bolalarni to'g'ri tarbiyalamog'imiz kerak. Bolalar rivojlanishiga qaysi ta'sir muhimroq qaysisi yetarli va qaysisi yetarli emas har birini o'rganib chiqishimiz kerak. Bola rivojlanishida qaysi tomonlama bo'shliq bo'lsa uni kerakli ma'lumot va ota-onaning to'g'ri maslahati bilan to'ldirish kerak. Zero kelajak yoshlar qo'lida.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.T. Nishanova "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya".
2. Xasanova.O U "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi "

3. Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ.
4. Ганиева, М. А., & Жумаева, Ш. Х. (2018). Формирование методов групповой работы с учащимися общеобразовательных школ. Вопросы науки и образования, (10 (22)), 149-151.
5. Maftuna, G. (2021). Effective ways to Use Triz (The Theory of Inventive Problem Solving) in Elementary School. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 9, 85-88.
6. Ганиева, М. (2021). ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ “ТРИЗ” ДЛЯ РАЗВИТИЯ УЧЕНИКИ НАЧАЛЬНОГО КЛАССА. Academic research in educational sciences, 2(5), 129-133.
7. G'aniyeva, M. (2021). BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA TRIZ (IXTIROCHI MASALALARINI HAL QILISH NAZARIYASI) DASTURINI QO'LLASHNING SAMARALI USULLARI. Scientific progress, 2(5), 108-112.